

MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE

**Baxodir Sobirov,
Dilafuz Yuldasheva,
Nazarova Iroda,
Tursunova Laylo**

Teachers of Fergana State University

Annotation: This article discusses the role and importance of music in human life.

Keywords: musical, artistic image, opera genre, creation, performance, discussion, comedy, imagination, singing

MUSIQIY ASARLAR VA ULARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

**Baxodir Sobirov, Dilafuz Yuldasheva,
Nazarova Iroda, Tursunova Laylo**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: mazkur maqolada musiqiy asarlarning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy asar, badiiy obraz, opera janri, ijod, ijro, muhokama, komediya, tasavvur, xonandalik

Bastakor va kompozitorpar badiiy obrazlarni kengroq qamrashga intilishib, musiqa va boshqa san'at turlari qorishmasi (sintezi)dan foydalani-shadi. Aniq tushunchaga ega bo'lgan so'z, sahna harakati, kino tasviri va boshqa unsurlar bilan qorishiq musiqa asarining ifodaviy imkoniyatlari kengayadi (qarang [Vokal musikasi](#), [Kino musikasi](#), [Rake musikasi](#), [Teatr musikasi](#)). musiqa., shuningdek, boshqa san'at turi va janrlarida ham muxim rol o'ynaydi. Mac, opera janrida, o'zbek musiqali dramasi va komediyasida xonandalik, xor san'ati hamda orkestr musiqaschnk drama bilan boglaydi. Balet va boshqa raqs shakllari ham uzining badiiy obrazlarini musiqa. yordamida ifodalaydi.

Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (uquv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va maxrratiga mos ravishda uzgartiriladi. musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega buladi.

Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda mussha ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional yunalishdagi madaniyat tizimida musiqa ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun musiqa ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida uzlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o'rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar. Musiqiy folklor tizimida musiqa. namunalari omma onginging badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo'shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi mussha cholg'ulari hamda inson ovoz k vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon buladi.

Musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqa faoliyati ning boshka turlari — mas, musiqa tarbiyasi, musiqa ta'limi, i. t. (Musiqashunoslik), musiqiy tanqid va boshkalar bilan birga jamiyat musiqa madaniyat i tizimini tashkil etadi.

Musiqaning tarixi. Musiqaning paydo bo'lishi masalasida turli ilmiy farazlar vujudga kelgan: hissiyotga to'lgan nutq oxangi (G. Spenser), qushlarning sayrashi va hayvonlarning uz juftlarini chaqirishi (Ch. Darwin), ibtidoiy odamlarning mehnat usullari (K. Byuxer) va ularning chaqiruv tovushlari (K. Shtumpf), jodu-sehrlash marosimlari (J. Kombarye) M.ning ilk manbalari hisoblanadi. Sharq muta-fakkirlari ham M.ning vujudga kelish muammosi haqida ilmiy mulohazalar qoldirishgan. M. tarixini Forobiy inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari bilan bevosita bog'liq holda, Ibn Xaldun (14-asr) esa — ijtimoiy tizimlarning shakllanish krnuniyatlariga asoslangan xrla tushuntirishgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani arxeologiya va etn. ma'lumotlaridan kelib chiqib, musiqaning san'atini ibtidoiy jamiyatda insonning amaliy faoliyati jarayonida boshqa san'at turlari (rake, she'riyat va q.k.) bilan krrishma (sinkretik) holda paydo bulishini asoslab beradi. Bunda musiqaning ijtimoiy muloqot vositasi, mehnat va marosim jarayonlarini tashkil etish vositasi bulib xizmat qiladi va, ayni vaqtda, jamiyatga zarur axlokiy ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash maqsadlarini kuzlaydi. Ibtidoiy davrning oxirgi bosqichida dastlabki qorishma san'at majmuasidan bir qancha san'at turlari, jumladan, musiqaning ham ajralib chiqadi. Ushbu davrga mansub afsonalarda musiqaning tabiatga, yovvoyi hayvonlarni o'rgatishda ta'sir kursatish, insonni turli kasalliklardan davolovchi kuch sifatida ta'riflanadi (qarang [Alikambar](#), [Ibtidoiy san'at](#), [Mavsum ko'shiklari](#), [Marosim qo'shiqlari](#)).

Quldorlik va ilk feodal tuzumiga asoslangan qad. dunyo davlatlari — Misr, Shumer, Bobil, O'rta Osiyo (taxminan miloddan avvalgi 1 ming yillik davri), Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim madaniyatlarida kasbiy musiqachilar maktablari shakllangan. Ular maxsus (bastakorlik, musiqaning ilmi kabi fan) bilim va qoidalarga asoslanib ijod qilgan. Natijada aytim, cholg'u, raqs, doston va boshqa janrlar paydo bulgan.

Turli xil musiqaning asboblari ([chang](#), ud, tanbur, lira, kifara, puflama va urma asboblari) takomillashtirilib, ular barqaror tovushqator va shakllarga ega bo'lgan. Musiqaning ushbu davrda asosan og'zaki an'anada rivojlanishiga qaramay, ayni vaqtda, uning ilk yozuv (iyeroglif, harfiy va boshqalar) tizimi ixtiro etilgan, musiqaning estetikasi va nazariyasi ta'limotlari shakllangan: Xitoyda — Konfutsiy, Yunonistonda — Pifagor, Geraklit, Demokrit, Aristotel, Platon, Aristoksen va boshqa, O'rta Osiyoda — Borbad.

O'rta asr G'arbiy Yevropada professional cherkov (bir ovoqli grigorian xorali, keyinchalik ko'p ovoqli xor va vokalcholg'u janrlari — orga-num, kondukt va boshqalar), dunyoviy (Fran-siyada — trubadurlar, truverlar; Germaniyada — minnezingerlar san'ati) hamda xalq Mxi rivoj topadi. 12-asrda Fransiyada Bibi Maryam ibodatxonasida birinchi kompozitorlik maktabi (Notr-Dam maktabi), 14-asrda Fransiya va Italiyada "Are nova" uslubi yuzaga kelgan. Gvido d Aretsso ixtiro etgan to'rt chizikli nota yozuvi tovush balandligi va nag'malar uzunligini aniq qayd etishga imkon yaratgan.

Ushbu davrda O'rta va Yaqin Sharq (Arab xalifaligi)da erkin rechitativ va parda tuzilmalariga asoslangan musulmon kasbiy musiqaning (azon, tartil, tajvid) janrlari shakllangan. Ular boshqa musiqaning turlaridan mustaqil ravishda rivojlanib, keyinchalik O'n ikki makom tizimining shakllanishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. 8— 13-asrlar musulmon Shark, xalqlari og'zaki an'anadagi kasbiy M. si doston (M. nazariyasida) yoki parda (she'riyat va musiqaning amaliyotida) tizimlari asosida shakllangan. O'rta Osiyo, Eron va arab xalqlari M.sida muttasil davom etgan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlari natijasida ushbu xalqlar uchun umumiy bo'lgan vokal (savt, g'ino, amal, mulammo, qavl va boshqalar) va cholg'u (ravoshin, peshrav kabi) turlari vujudga kelgan. Mashhur bastakor, xonanda va sozandalar Ibrog'im Mavsiliy, Ishoq Mavsiliy, Ziryob, Mansur Zalzal, Ibn Surayj, Ibn Axvas as-So'g'diy, Safiuddin al-Urmaviy va boshqa ijod qilgan. Musiqaning ilmida ham muhim yutuqlarga erishilgan. Yunon musiqaning nazariyasi hamda mahalliy xalqlar musiqaning an'alariga asoslangan musiqiy estetikaning va ilmiy nazariy ta'limotlar dastlab mat. fanlari doirasida (al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino), keyinchalik mustaqil fan sifatida (Urmaviy) shakllangan. Ishoq Mavsiliy va Kindiy Sharqda ilk bor musiqaning (harfiy) yozuvini ixtiro etishgan. Urmaviy esa ushbu yozuvni parda tizimiga moslashtirgan

Adabiyotlar Ro'yxati

1. Durdona, M. (2021, May). ABOUT DUTOR AND HIS PERFORMANCE. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).
2. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.

3. Nasritdinova, M., & Khokimova, K. (2021, October). LANGUAGE IS THE MIRROR OF THE NATION. In *Archive of Conferences* (pp. 92-94).
4. Nurmamatovich, D. S. (2022). The Role of Modern Technologies in the Learning Process. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(8), 6-9.
5. Nurullayevna, N. M., & Muhlisa, T. (2021, December). SOME PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. In *Archive of Conferences* (pp. 61-62).
6. Nurmammadovich, R. O., & Nurullaevna, N. M. (2021). Social And Spiritual Importance of Lessons of Musical Culture. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 50-52.
7. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
8. ZAYNIDDINOVNA, N. I. Uzbek National Dance Art and Its Historical Stages. *JournalNX*, 6(12), 191-194.
9. Najmetdinova, M., & Odinahon, S. (2021, October). HISTORY OF TRADITIONAL PERFORMING ARTS. In *Archive of Conferences* (pp. 89-91).
10. Axadjonovich, Q. A., & Mamasodiqovna, N. M. (2021, May). MARGILAN LARGE ASHULA SCHOOL. In *E-Conference Globe* (pp. 292-298).
11. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
12. Rahmonov Ulugbek. (2021). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. *Euro-Asia Conferences*, 1(1), 131–136. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/40>
13. Рахмонов У., Эргашев А., Атабаева С. и Дилфузахон С. Ю. (2021, декабрь). РОЛЬ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ПРОНИКНОВЕНИИ ПОП-МУЗЫКИ В УЗБЕКИСТАН. В Архиве конференций (стр. 51-53).
14. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
15. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 47-49.
16. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
17. Nomozova, D. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING VOCABULARY IN STAGES. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
18. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
19. AKHROROVA, R. U. (2021). THE LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD AND THE GENDER ASPECT OF THE CONCEPT OF " AGE" IN FRENCH AND UZBEK. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 585-589.
20. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 53-56.
21. Маннопов, С., & Сулейманова, Д. К. (2019). Музыкальное наследие узбекского народа. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 82-84.
22. Mannopov, S. (2004). O'zbek xalq musiqa madaniyati. *Toshkent*, "Yangi asr avlodi" nashriyoti.

23. Karimova, M., Achildiyeva, M., Ikromova, F., & Xaydarova, O. (2021). USE FROM PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS.
24. Egamberdiyeva, T. U. A., & Qurbonov, J. A. (2020). DIAGNOSTICS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL CULTURE AMONG STUDENTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 512-519.
25. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.
26. Yuldashev, F. (2021). The Study Of Socio-Psychological Problem Of Loneliness. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(12), 2580-2590.
27. Abduvositovich, Y. F., Suleymanova, D., Rakhmonov, U., Ergashev, A., Kurbanova, B., & Axmadbekova, M. (2021). The role of the great scholars of the Eastern Renaissance in the art of music in shaping the socio-spiritual thinking of young people. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2846-2850.
28. Laylo, T. (2022). FUNCTIONS OF MUSICAL CULTURE IN THE FORMATION OF A SPIRITUAL WORLD VIEW. *World Bulletin of Social Sciences*, 6, 72-77.
29. Турсунова, Л. Э. (2019). Признание о международном фольклорном фестивале «Великий шелковый путь», проведённом в городе Маргилан Ферганской области. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 109-112.
30. Mahmudov, N. O., Norimova, S. A., & Ehsonov, D. R. (2021). So ‘ngi o ‘rta asrlarda o ‘rta osiyoda hunarmandchilik markazlarini takomillashtirish asoslari. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 692-715.